

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

11-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/11 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI*Rahmankulova Adolat Xushbakovna*

ПРОБЛЕМЫ РЕАБИЛИТАЦИИ НАСИЛЬСТВЕННО ПЕРЕСЕЛЕННЫХ НАРОДОВ

В УЗБЕКИСТАН В 1930 – 1940-е ГОДЫ..... 11-19

Назирхожаев Мухаммадалихожа Касимхожаевич

ФОРМИРОВАНИЕ И ОРГАНИЗАЦИЯ ЛАГЕРЕЙ ДЛЯ СОДЕРЖАНИЯ ЯПОНСКИХ

ВОЕННОПЛЕННЫХ В СОВЕТСКОМ СОЮЗЕ..... 20-29

Kaypova Malika Dautbay qizi

MUSTAQILLIQ YILLARIDA TURIZM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR..... 30-33

Sobirova Dilfuza, Mirzaaxmedov Xabibullo, Odiljonov Xayitali

QO'QON XONLIGINING DIPLOMATIK ALOQALARI 34-39

Raupova Mushtariybegim Ilxomjon qizi

TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGINING MA'MURIY-HUDUDIIY BOSHQARUVI

TARIXSHUNOSLIGI 40-47

Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы

ДИПЛОМАТИЯ И ТОРГОВЛЯ НА ПЕРИФЕРИИ ИМПЕРИЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ

ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ

МУХАММАД РАХИМХАНА I (1806–1825) 48-54

Рузибоев Самандарбек, Ахмадбекова Ўғилой

НАУЧНО-ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ АБУ РАЙХОНА БЕРУНИ

«АЛ-АСАР АЛЬ-БАКИЯ»: МЕТОДОЛОГИЯ, ИСТОЧНИКИ И КУЛЬТУРНО-

ХРОНОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗЗРЕНИЯ 55-64

Tilovov Mirqosim Amanturdiyevich

OLTINSOY TUMANI ARXEOLGIK XARITASI 65-70

Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li

O'ZBEKISTONDA NEFT VA GAZ SANOATI TARIXI (1900-1950 YILLAR) 71-76

Abdurasulov Akmaljon

TURKISTONDA MATBAACHILIKNING VUJUDGA KELISHIDAGI HAMKORLIK

ALOQALARI TARIXI..... 77-86

Abatov Aydos

QORAQALPOG'ISTONDA SANOATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH

BOSQICHLARI (XX ASR II YARMI) 87-90

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI*Pirmatova Farangiz Ma'rufjonovna*

THE EFFECTS OF GREEN ECONOMY IMPLEMENTATION ON ECONOMIC GROWTH

IN DEVELOPING COUNTRIES..... 91-99

Jumabayev Adilbek Bazarbayevich

WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF REGIONAL ECONOMIC POTENTIAL 100-107

<i>Jaxbarov Jamshidbek Tilavoldi o'g'li</i> BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NAZORATNI RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH	108-114
<i>Fayzieva Dilyora Shamsitdin kizi,</i> INSTITUTIONAL PRISM OF DIGITAL DIVIDENDS: THE IMPACT OF HUMAN CAPITAL AND "ANALOG COMPLEMENTS" ON THE DYNAMICS OF SOCIO-ECONOMIC INEQUALITY.....	115-123
<i>Турдыев Гайрат Ялгашевич</i> РАЗВИТИЕ АВТОКОЛОНИ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В УСЛОВИЯХ ТРАНСПОРТНЫХ РЕФОРМ: ИСТОРИЧЕСКИЙ И СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАПЫ.....	124-129
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Xolmirzaev Nodirjon Nizomjonovich</i> SHAHAR AHOLISINING IJTIMOY MUAMMOLARINING IJTIMOY FALSAFIY TAHLILI ..	130-134
<i>Kenjayeva Dilrabo Rominovna</i> INSONIYAT TARIXI VA DINIY BAG'RIKENGLIK	135-139
<i>Karimov Raxmat Raxmanovich</i> СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МЕЖЦИВИЛИЗАЦИОННОЙ ФИЛОСОФИИ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	140-146
<i>Ergashev Urolbek Berkinovich</i> NAZARIY FALSAFANI TASNIFLASHDA AHMAD TOSHKO'PRIZODA YONDASHUVI.....	147-151
<i>Raximdjanova Dilnavoz Sunnat qizi</i> IBN RUSHDNING TAFAKKUR ERKINLIGI HAQIDAGI QARASHLARI.....	152-155
<i>Abdunazarov Lutfillo Mamanovich</i> YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURATI	156-160
<i>Tangirov Nizom Abduraxmonovich</i> NOOSFERA VA BARQAROR RIVOJLANISH PARADIGMASINING FALSAFIY-METODOLOGIK ASOSLARI	161-166
<i>Yusupova Nargiza Ro'stamovna</i> O'ZBEK ETNOMUSIQASIGA OID TARIXIY MANBA VA MUTAFAKKIRLAR ETNOMUSIQA BORASIDAGI QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI.....	167-172
<i>Xudoykulov Azamat Beshumovich</i> MA'NAVIY BARKAMOL YOSHLAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA G'OYAVIY TARBIYANING O'RNI	173-177
<i>Xamdamov Behzod</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR DUNYOQARASHIDA VATANPARVARLIK G'OYALARINING FALSAFIY-TARIXIY ASOSLARI	178-185
<i>Bekchanov Sanjar Ibragimovich</i> "MODERNIZATSIYA" TUSHUNCHASINING IJTIMOY-FALSAFIY MOHIYATI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA MILLIY KONSEPSIYALAR.....	186-190
<i>Adizov Azim Tolibovich</i> IJTIMOIY KONFRONTATSIYANING TUZILISHI VA DINAMIKASI.....	191-196

<i>Eshmurodov Nabillo</i> GLOBALLASHUV JARAYONIDA SHAXS MA'NAVİYATINING TRANSFORMATSIYASI VA BEGONALASHUV MUAMMOSI	197-201
<i>Yokubov Suxrob Firdavsovi</i> TASAVVUF TA'LIMOTINING G'OYAVIY MANBALARI	202-206
<i>Najimidinova Dilnoza Gulomjonovna</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEK MILLIY OILASINING IJTIMOIY-FALSAFIY MASALALARI	207-210
<i>Otokulov Abror Sobirkulovich</i> JAMIYATDA MA'NAVİY-AXLOQIYLIKNI YUKSALTIRISHDA SHAXS MAS'ULIYATINI OSHIRISH OMILI	211-217

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Maxamadaliyeva Zuxra Baxrom qizi, Adilova Nasiba Raximboy qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MADANIY METAFORALARNING MOHIYATI	218-222
<i>Xusainova Zilola Yuldashevna, Yangibayeva Surayyo Gulumboyevna</i> DIAXRON KORPUS ALGORITMLARI	223-228
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> POLITICAL EXILE AND PERSONAL IDENTITY IN LORD BYRON'S LIFE AND WORK	229-233
<i>Karimova Ozodaxon Avazxon qizi</i> A LINGUO-PRAGMATIC STUDY OF INFORMAL SPEECH IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES: COMPARATIVE ANALYSIS OF COMMUNICATIVE STRATEGIES, SOCIOCULTURAL CONTEXTS, AND PRAGMATIC FUNCTIONS	234-240
<i>Айтмуратова Турсынай Маратовна</i> КОНЦЕПТ «ТРУД» В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ	241-244
<i>Fayzullayeva Zebuniso Abdukarimovna</i> KONYUNKTIVNING SEMANTIK-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI	245-248
<i>Sodikova Vasilakhon, Gavharoy Isroiljon qizi</i> THE ISSUES OF INFORMATION SECURITY AND RELIABILITY IN MODERN JOURNALISM	249-258
<i>Холикова Замира</i> СРАВНИТЕЛЬНО-СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С КОМПОНЕНТОМ-ЗООНИМОМ «СОБАКА» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ	259-272

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Турсунова Маликахон Улугбековна</i> СООТНОШЕНИЕ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ РАНГОВ С КВАЛИФИКАЦИОННЫМИ КЛАССАМИ ДОЛЖНОСТЕЙ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ЗНАЧЕНИЯ КЛАССОВ И РАНГОВ В ДИПЛОМАТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	273-286
<i>Karaketova Dilnoza Yuldashevna</i> JINOYAT SUBYEKTINI TAVSIFLOVCHI BELGI SIFATIDA RETSIDIV	287-294
<i>Мируктамова Феруза Лутфуллаевна</i> ПРАКТИКА ЗАРУБЕЖНЫХ ГОСУДАРСТВ ПО ЗАЩИТЕ ПРАВ И БЕЗОПАСНОСТИ ДЕТЕЙ ОТ ИНФОРМАЦИОННЫХ УГРОЗ	295-300

<i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i> MULK HUQUQIDAN VOZ KECHISHNING AYRIM MASALALARI.....	301-309
<i>Akayeva Marapat Abduxalikovna</i> FUQAROLIK HUQUQIDA ASSOSSIZ BOYLIK ORTTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA ...	310-317
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ENERGETIKA SEKTORIDA ATROF-MUHITGA TA'SIRNI BAHOLASH TIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING HUQUQIY SHART-SHAROITLARI.....	318-326
<i>Jiyenbayev Baxadir Ospanovich</i> EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA'MINLASHGA DOIR HUQUQIY NORMALARNING ILMIY VA NAZARIY MOHIYATI	327-332
<i>Шомуратова Пальмира Комил қизи</i> РЕАЛИЗАЦИЯ ПРИНЦИПА СОСТЯЗАТЕЛЬНОСТИ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ: ПРЕДЕЛЫ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ УСИЛЕНИЯ	333-339
<i>Калдарбеков Асылжан Оспанович</i> РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ И ПРАВОВАЯ ОХРАНА ЗЕМЕЛЬ ЛЕСНОГО ФОНДА: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ОПЫТ КАЗАХСТАНА И УЗБЕКИСТАНА	340-351
<i>Istamova-Fayzullaeva Dilafruz Oybek qizi</i> SOMATIK HUQUQLARNING NAZARIY TALQINI: GERMANIYA VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI ASOSIDA QIYOSIY HUQUQIY TAHLIL	352-359
<i>Urakov Djaxongir Rajabovich</i> PROKURATURA ORGANLARINING YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTİKASINI AMALGA OSHIRISH BORASIDA HAMKORLIK FAOLIYATI	360-365
<i>Байтурова Ауда Набиевна</i> СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЭКОТУРИСТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	366-373
<i>Xushvaqtov O'tkir Temirovich</i> VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGI TUSHUNCHASI NAZARIY VA QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI	374-382
<i>Mustafaqulov Dilshod Salomovich</i> NORMA IJODKORLIGI JARAYONIDA QONUNIYLIK PRINSIPI	383-389
<i>Nomazov Ixtiyor Ismailovich</i> ISBOT QILISH ELEMENTI SIFATIDA KO'RSATUVLARNI OLDINDAN MUSTAHKAMLAB QO'YISH	390-394
<i>Xoliqnazarov Farhod Bozor o'g'li</i> INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI JINOIY-HUQUQIY HIMOYA QILISH MASALALARI ...	395-399
<i>Normuratov Aktam Tulaboy o'g'li</i> OLIY TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JALB QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	400-403
<i>Шомахсудов Шоакрам Шомуратович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ОСОБЕННОСТИ ПОЛУЧЕНИЯ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ КОМПЬЮТЕРНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ ПРИ РАССЛЕДОВАНИИ КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ	404-411
<i>Rasulov Baxtiyor Shavkatovich</i> O'ZBEKISTONDA ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH VA EKOLOGIK NAZORATNI KUCHALTIRISH MASALALARI.....	412-418

<i>Javlijeva Gullola Abdurahim qizi</i> IJARA MEHNATI — NOTIPIK MEHNAT MUNOSABATLARINING SHAKLI SIFATIDA.....	419-425
<i>Babaeva Irodakhon Erkinjon qizi</i> ISSUES OF IMPLEMENTING INTERNATIONAL LEGAL NORMS IN THE FIELD OF CLIMATE CHANGE INTO THE NATIONAL LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	426-434
<i>Ядгаров Шахрух</i> ЮРИДИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ШАНХАЙСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК СУБЪЕКТА МЕЖДУНАРОДНОГО ПРАВА.....	435-439
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING FIZIKA FANIDAN NOSTANDART TOPSHIRIQLARNI BAJARISH ORQALI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH.....	440-446
<i>Ismaylov Azerbay Saparniyazovich</i> SUN'IY INTELLEKTNING TA'LIMDAGI O'RNI.....	447-451
<i>Xolmirzayeva Gulbahor Baxodirovna</i> MAKTABGACHA TA'LIMDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARNI MILLIY MODEL BILAN UYG'UNLASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	452-457
<i>Raximova Lolaxon Abduraximovna</i> TALABALARNING KLINIK QAROR QABUL QILISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA BIOFIZIK DIAGNOSTIKA TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATIV O'QITISH METODIKASI.....	458-462
<i>Toshmamatova Munisa Toshmamatovna</i> UMUMTA'LIM FANLARIDAN DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING MAVJUD HOLATI TAHLILI.....	463-466
<i>Raximdjanova Malikaxon Gapurdjanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna</i> INTERCULTURAL COMPETENCE AND REFLECTIVE LEARNING IN GLOBALIZED HIGHER EDUCATION: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS.....	467-473

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI - PHILOLOGICAL SCIENCES

Received: 1 December 2025
Accepted: 15 December 2025
Published: 30 December 2025

Article / Original Paper

**THE NATURE OF CULTURAL METAPHORS
IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES**

Makhamadaliyeva Zuhra Bakhrom qizi

UzNU, Faculty of Foreign Philology,
Senior Lecturer, Department of Foreign Language and Literature PhD

Adilova Nasiba Rakhimboy qizi

Master's student of the University of Exact and Social Sciences

Abstract. This article explores the nature of cultural metaphors from cognitive and linguocultural perspectives. It demonstrates that metaphors reflect national mentality, cultural values, historical experience, and symbolic worldviews. Cultural metaphors are viewed as conceptual mechanisms that shape human thinking and structure perception. Comparative analysis of English and Uzbek metaphors reveals similarities and differences in their conceptual models, semantic structures, and cultural motivations.

Keywords: cultural metaphor, worldview, conceptual model, cognitive linguistics, symbolism, cultural code.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MADANIY METAFORALARNING MOHIYATI

Maxamadaliyeva Zuxra Baxrom qizi

UzMU, Xorijiy filologiya fakulteti,
Xorijiy til va adabiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi PhD
E-mail: m_zukhra.uzb@mail.ru

Adilova Nasiba Raximboy qizi

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti magistranti
E-mail: nasiba.adilovaa@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola madaniy metaforalar tabiatini lingvokulturologik va kognitiv nuqtai nazardan o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot metaforalar milliy tafakkur, tarixiy xotira, madaniy kodlar va ijtimoiy qadriyatlarning aks etish shakli ekanini asoslaydi. Metaforalar faqat badiiy vosita emas, balki inson dunyoqarashi va idrok tizimini shakllantiruvchi konseptual mexanizm sifatida talqin etiladi. Ingliz va o'zbek madaniy metaforalari qiyosiy tahlil qilinib, ularning konseptual modellari, semantik xususiyatlari hamda ularni shakllantirgan tarixiy-diniy omillar ochib beriladi.

Kalit so'zlar: madaniy metafora, lingvomadaniyat, konseptual metafora, mentalitet, kognitiv model, semantik maydon.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI11Y2025N33>

Kirish. Metafora inson tafakkurining eng qadimiy va universal hodisalaridan biri hisoblanadi. Lakoff va Johnsonning "Konseptual metafora nazariyasi"ga ko'ra, inson abstrakt tushunchalarni konkret konseptlar orqali idrok etadi va bu idrok jarayoni asosan metaforik modellashirish orqali amalga oshadi. [1; 242 b]. Madaniy metafora esa millatning mentaliteti,

tarixiy tajribasi, diniy dunyoqarashi hamda qadriyatlarini aks ettiruvchi lingvokulturologik struktura bo'lib, har bir xalqning dunyoni qabul qilish va tushunish modelini metaforik tasavvurlar orqali shakllantiradi. Shunday ekan, madaniy metaforalarning tabiati va funksiyalarini tadqiq etish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, psixologiya, tarjima nazariyasi va kommunikatsiya fanlari nuqtai nazaridan ham katta ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi. Madaniy metaforalarni tadqiq etish bo'yicha ilmiy ishlanmalar bir necha nazariy paradigmalarga tayanadi. Mazkur yo'nalishlar metaforaning mohiyatini, uning kognitiv, madaniy va lingvistik funksiyalarini turlicha talqin etishi bilan ahamiyatlidir.

Konseptual metafora nazariyasi tadqiqi shundan iboratki, Lakoff va Johnson tomonidan asoslangan konseptual metafora nazariyasiga ko'ra, metafora fikrlashning markaziy mexanizmi bo'lib, inson ongidagi abstrakt tushunchalar ko'pincha konkret tajribalar sohasidan olingan modellar asosida shakllanadi [1, 242 b]. Ushbu yondashuv metaforani tilning stilistik vositasi emas, balki kognitiv kategoriyalashning asosiy mexanizmi sifatida talqin qiladi. Shuningdek, konseptual metafora insonning dunyoni qanday idrok etishi va uni qanday til bilan ifodalashini belgilovchi konseptual xarita sifatida izohlanadi.

Madaniy metaforalar nazariyasi. Z. Kövecses o'z ilmiy tadqiqotlarida metaforalarning universalligi bilan birga, ularning turli madaniyatlarda turlicha namoyon bo'lishini tahlil qiladi. [2, 45–47-b]. Olim metaforalarning shakllanishi jamiyatning tarixiy tajribasi, mentaliteti, qadriyatlari va diniy qarashlari bilan uzviy bog'liqligini asoslab beradi. Kövecses fikricha, madaniy metaforalar universallikka ega bo'lsa-da, ularning semantik maydonlari muayyan madaniy kontekstda shakllanadi va mazmun jihatidan milliy xususiyatlar bilan boyitiladi.

Lingvomadaniy yondashuv. D. Crystal, A. Sharipov, A. Mahmudov kabi olimlar metaforalarni milliy o'zlik, ramzlar tizimi, madaniy kodlar va ijtimoiy ong bilan bog'liq til birliklari sifatida o'rganadilar. [3, 112–115-b]. Ushbu yondashuvga ko'ra, metafora nafaqat til hodisasi, balki millatning dunyoqarashi va madaniy tajribasini aks ettiruvchi lingvokulturologik struktura hisoblanadi. Metaforalar orqali jamiyatning qadriyatlari, mental tasavvurlari va kollektiv ongiga xos bo'lgan ramzlar tizimi tilga ko'chadi.

O'zbek tilshunosligida metafora tadqiqi shundan iboratki, O'zbek tilshunosligida metaforaga oid izlanishlar asosan ma'naviy-metaforik birliklarning semantik, kognitiv va lingvomadaniy xususiyatlarini tahlil qilishga qaratilgan. Yoqubov, Sayfullayeva va boshqa mahalliy tadqiqotchilar metaforaning milliy mentalitet bilan bog'liqligini, uning semantik strukturasi va qo'llanish xususiyatlarini tahlil qilganlar. [4, 78–82-b]. Bu tadqiqotlar o'zbek tilidagi metaforik birliklarning tabiati ko'p jihatdan islomiy-irfoniy dunyoqarash, turkiy-madaniy arxetiplar va xalq og'zaki ijodi an'analariga tayanishini ko'rsatadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Tadqiqot natijalari madaniy metaforalar tilning kognitiv va lingvomadaniy qatlamlarida faoliyat yurituvchi murakkab semantik mexanizm ekanini ko'rsatdi. Ingliz va o'zbek tillari materiali asosida olib borilgan tahlillar metaforik birliklarning shakllanishi milliy mentalitet, tarixiy xotira, diniy tasavvurlar va ijtimoiy ong bilan bevosita bog'langanini tasdiqladi. Quyida tadqiqotning asosiy natijalari tizimli tarzda yoritiladi.

Madaniy metaforalar konseptual asoslari sifatida. Tahlil jarayonida ingliz va o'zbek tillaridagi metaforalar turli kognitiv konseptual maydonlarga tayanishi aniqlandi: Ingliz tilida metaforik modellar ko'pincha harakat, vaqtning iqtisodiy qadri, maqsadga yo'naltirilganlik va individualizm konseptlariga asoslanadi. Masalan, *"Time is money"* metaforasi ingliz jamiyatida

vaqtning iqtisodiy resurs sifatida idrok etilishini ko'rsatadi [1; 56-b]. O'zbek tilida esa metaforalar ruhiyat, tabiat obrazlari, ma'naviylik va ijtimoiy birlik konseptlariga tayanadi. Masalan, "*Ko'ngil — daryo*" metaforasi o'zbek mentalitetida qalbning kenglik, poklik va oqimga ega bo'lgan ruhiy substansiya sifatida talqin qilinishini anglatadi. [5,188–190-]

Ushbu farqlar madaniy metaforalarning konseptual asoslari milliy dunyoqarash va mental modellar bilan shakllanishini ko'rsatadi.

Tarixiy va diniy omillarning metaforik modellar shakllanishidagi roli. Metaforalarning mazmuniy strukturasida diniy va tarixiy qatlamlar muhim determinator sifatida namoyon bo'ladi: Ingliz metaforalarida xristianlik ramzlari, protestant etikasi va industrial jamiyat qadriyatlari semantik asosni tashkil etadi. Masalan, "*The light of the world*" iborasi najot, poklik va ruhiy yo'l ko'rsatish timsoli sifatida talqin qilinadi [3, 91-b]. O'zbek metaforalarida esa islomiy-irfoniy an'analar, tasavvuf falsafasi hamda turkiy dunyoqarash markaziy o'rin egallaydi. Masalan, "*Ko'ngil Ka'basi*" metaforasi qalbning ilohiy markaz sifatidagi tasavvuridan kelib chiqadi [6, 221-b].

Bu holat metaforalarning semantik maydoni jamiyatning diniy-madaniy tajribasiga chuqur singib ketishini ko'rsatadi.

Mentalitet farqlarining metaforalar orqali namoyon bo'lishi ko'rishimiz mumkin. Metafora milliy xarakter va mentalitetni aks ettiruvchi lingvokognitiv vosita sifatida quyidagi farqlarni yoritadi: Masalan

Ingliz tilida:

pragmatizm,
individualizm,
natijadorlik va maqsadga yo'naltirilganlik.

O'zbek tilida:

ruhiy poklik,
jamoaviylik,
saxovat va bag'rikenglik.

Bu xususiyatlar metaforalarning milliy o'ziga xoslikni aks ettiruvchi semantik indikator ekanini ko'rsatadi.

Semantik maydonlarning shakllanish mexanizmlari. Har bir tilning metaforik tizimi quyidagi omillar ta'sirida shakllanadi:

- tarixiy xotira,
- urf-odat va rasm-rusumlar,
- diniy e'tiqodlar,
- ijtimoiy ong va ijtimoiy amaliyot,
- tabiiy-geografik muhit.

Shu sababli metaforalar umumkognitiv universal modellarni aks ettirgan bo'lsada, ularning semantik to'qimasi milliy madaniy qatlam bilan boyigan holatda namoyon bo'ladi. Kövecses ta'biri bilan aytganda, metafora universal va madaniy xususiylikning sintez mahsulidir [2, 89-b].

Metaforik nom ko'chish va semantik jarayonlarning tahlili. Metaforik nom ko'chish quyidagi shartlar mavjud bo'lganda ro'y beradi:

- obyektiv yoki subyektiv o'xshashlik asosining mavjudligi;
- bu o'xshashlikning til sistemasida semantik moslik orqali namoyon bo'lishi;

- nutqiy vaziyatda nomlash zaruriyatining paydo bo'lishi.

Metaforaning semantik tabiatini anglashda komponent tahlil nazariyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki metafora nutqiy hosila bo'lsa-da, u lisoniy imkoniyatlar va semantik qonuniyatlarga tayanadi.

Ekspressivlik darajasiga ko'ra metaforalar tasnifi. Tadqiqot davomida metaforalarning ikki asosiy turi ajratildi:

- Ekspressiv metaforalar emotsional-badiiy ta'sir kuchiga ega, baholash komponentini o'z ichiga oladi. (masalan, *hurriyatning chashmasi, ilm-ma'rifat urug'i*).
- Noekspressiv metaforalar lisoniy tizimda barqarorlashgan, ko'pincha nominativ funksiyani bajaradi (masalan, *eshik og'zi, o'choq boshi*).

Bu farq metaforaning nomlash jarayonidagi funksional vazifasiga bog'liq.

Metaforaning sintagmatik munosabatlari. Metaforaning matn va nutqdagi voqelanishi sintagmatik aloqalar orqali belgilanadi: Ochiq metafora sintagmatik munosabat aniq, bir jumla doirasida to'liq talqin qilinadi. Yopiq metafora ma'no faqat matn yoki situativ kontekst orqali yuzaga chiqadi.

Masalan, *“odam zavodi”* yoki *“arslonim”* kabi metaforalar kengroq kontekst orqali tushuniladi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, madaniy metaforalar inson dunyoqarashi va kognitiv faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, ular milliy mentalitetni aks ettiruvchi asosiy vositalardan biridir. Ingliz tilidagi metaforalar pragmatizm, harakat, vaqt qadri va individualizmga asoslangan bo'lsa, o'zbek metaforalari ruhiyat, ma'naviyat, tabiat obrazlari va jamiyat birligiga yo'naltirilgan.

Madaniy metaforalarning tabiati: tarixiy-madaniy omillar bilan belgilanadi; diniy dunyoqarashga tayanadi; milliy identitetni shakllantiradi; kommunikativ jarayonlarda ma'no yaratishning asosiy mexanizmini tashkil qiladi.

Shu bois madaniy metaforalarni o'rganish tarjima, ta'lim, diplomatiya, madaniyatshunoslik va psixolingvistika uchun katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqotlar madaniy metaforalar inson tafakkurining konseptual tuzilishini aks ettiruvchi, milliy mentalitetni shakllantiruvchi va kommunikativ jarayonlarda ma'no yaratishning asosiy mexanizmlaridan biri ekanini yaqqol ko'rsatdi. Metafora nafaqat badiiy tasvir vositasi, balki kognitiv jarayonlarning markaziy elementi sifatida til va madaniyat o'rtasidagi uzviy aloqani namoyon qiladi. Ingliz va o'zbek tillarining materiallari asosida amalga oshirilgan tahlillar metaforik modellar shakllanishi turli tarixiy, diniy, psixologik va ijtimoiy omillar bilan belgilanadi degan ilmiy xulosani tasdiqlaydi.

Tadqiqot jarayonida aniqlanganki, ingliz metaforalari asosan pragmatizm, individualizm, vaqtning iqtisodiy qadri va industrial jamiyat tamoyillariga tayanadi. O'zbek metaforalari esa ruhiy poklik, ma'naviyat, tabiat obrazlari, jamoaviylik va tasavvufiy dunyoqarashga asoslanadi. Bu holat madaniy metaforalarning universalligi bilan birga ularning milliy xususiyligini ham namoyish etadi. Shuningdek, metaforalarning semantik maydonlari milliy tarix, diniy qarashlar, urf-odatlar va ijtimoiy ong orqali shakllanishi aniqlandi.

Tadqiqotning yana bir muhim natijasi shundan iboratki, metaforik nom ko'chish jarayonining lisoniy mohiyati komponent tahlil nazariyasi asosida izohlanganida, metafora nutqiy hodisa sifatida ko'ringan bo'lsa-da, u keng qamrovli lisoniy tizim va kognitiv

mexanizmlarga tayangan holda amal qiladi. Metaforalarning ekspressiv va noekspressiv turlari esa ularning nomlash funksiyasidagi rolga qarab farqlanishi ilmiy asoslandi.

Umuman olganda, madaniy metaforalarni o'rganish tilshunoslik, lingvokulturologiya, psixolingvistika, tarjima nazariyasi va madaniyatshunoslik uchun katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Metaforalar milliy dunyoqarashning konseptual asoslarini shakllantirish, ma'naviy qadriyatlarni uzatish, xalqning ruhiy olamini tasvirlash va intermadaniy muloqotni samarali ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu bois madaniy metaforalarni izchil tahlil qilish, ularning milliy o'ziga xoslik va universal kognitiv mexanizmlar o'rtasidagi nisbatini aniqlash kelgusidagi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Lakoff, G., Johnson, M. *Metaphors We Live By*. Chicago University Press, 1980.
2. Kövecses, Z. *Metaphor in Culture*. Cambridge University Press, 2005.
3. Crystal, D. *The Cambridge Encyclopedia of Language*. CUP, 1997.
4. Gibbs R. *The Poetics of Mind*. Cambridge University Press, 1994.
5. Charteris-Black J. *Politicians and Rhetoric*. Palgrave, 2011.
6. Mahmudov N., Yoqubov D. *Til va madaniyat*. Toshkent, 2019.
7. Sayfullayeva R. *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. Toshkent, 2017.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/11 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).